

**“MEHRLI MAKTAB” GOSPITAL TA’LIMIDA UZOQ  
MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALARINI PSIXOLOGIK  
QO’LLAB-QUVVATLASH**

*Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi*

*“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi Namangan viloyati filiali  
Psixolog*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Mehrli maktab” davlat ta`lim muassasasi faoliyati, “Mehrli maktab”da bolalarni psixologik qo’llab quvvatlash, ota-onalar, pedagog hodimlar va shifokorlar bilan psixolog hamkorligini uzlucksiz va samarali yo‘lga qo‘yish va bolani ijtimoiylashuvi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** “Mehrli maktab”, gospital ta’lim, ijtimoiylashuv, psixologik buzilishlar, psixologik yordam, motivatsiya, inqiroz davrlari, psixologik qo’llab quvvatlash.

**Аннотация.** В статье рассматривается психологическая поддержка детей, нуждающихся в длительном лечении в условиях стационара, постоянное и эффективное сотрудничество психологов с родителями, педагогами и врачами, создание необходимых условий для социализации ребенка.

**Ключевые слова:** госпитальное образование, социализация, психологические расстройства, психологическая помощь, мотивация, кризисные периоды, психологическая поддержка.

**Abstract.** This article is about psychological support of children who need long-term treatment in hospital education, continuous and effective cooperation of psychologists with parents, pedagogues and doctors, and creation of necessary conditions for socialization of the child is considered.

**Keywords:** hospital education, socialization, psychological disorders, psychological help, motivation, crisis periods, psychological support.

## Kirish.

Hozirgi kunda yurtimizda ta’lim sohasiga shuningdek, gospital ta’limga ham alohida e’tibor qaratilmoqda va bu yo‘nalishda bir qancha o‘quv-me’yoriy xujjatlar qabul qilinib, loyihibar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta’limga qaratilyotgan e’tibor va keng ko’lamlı ishlarning natijasi o‘laroq 2022-yilning 5-mayida “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o’rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi hukumat qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning natijasi sifatida bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o’rta ta’lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi tashkil etildi va o‘z faoliyatini boshladi. Kamol topishda nuqsoni bor bolalarning kamchiligini o‘z vaqtida bilish, kasallikni davolash, pedagogik ta’sir ko`rsatish, muayyan ijtimoiy natijalarga erishish imkonini beradi, hamda bu bolalarni kamol topishini ta`minlaydi, ularni mакtabda beradigan bilimlarni o`zlashtirib olishga, so`ngra esa jamiyatning foydali a`zolari bo`lib etishishga yordam beradi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Mehrli maktab” yuridik shaxs maqomiga ega hisoblanadi. Shuni inobatga olishimiz kerakki, gospital ta’limda kognitiv rivojlanish, ijtimoiy moslashuv bilan bog`liq muammolar aniqlangan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash (yordam ko`rsatish) bo‘yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilishi lozim. Gospital ta’limda asosan uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun shakllangan ta’lim dasturlari mavjud bo‘lib, bunda o‘quvchilar individual o‘quv faoliyatini, asosiy va moslashtirilgan umumiy ta’lim dasturlarini, hamda samarali o‘qitish tehnologiyalarini o‘z ichiga oladi.

Bilamizki, og`ir va surunkali kasallik bolaning ham ruhiy, ham jismoniy holatida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Kasallik holatida ham bolaning shaxsiyatini eng uyg‘un va to‘liq rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, psixologik buzulishlarni oldini olish, yoki uning og‘irligini kamaytirish,

bolaning keyingi ijtimoiy moslashuviga imkon berish uchun, bolalar jamoasini qo'llab-quvvatlashi lozim. Psixologik-pedagogik xizmatlar esa butun davolanish va reabilitatsiya davrida zarur hisoblanadi. Gospital ta'limda amalga oshiriladigan psixologik faoliyatning to'rtta o'zaro bog'liq sohasi mavjud: bolaga yordam berish, bolaning ota-onalari (oila a'zolari) bilan ishlash, shifokorlar va hamshiralar bilan o'zaro munosabat, o'quv jarayonini amalga oshiruvchi mutaxassislar bilan ishlash.

“Mehrli mактаб”da bolalarga psixologik xizmat uchta ketma-ket bosqichda ko'rsatiladi va bolaning jismoniy va aqliy holati barqaror bo'lsa, tibbiy muassasada davolanishni boshlagan paytdan boshlanadi. Birinchi bosqichda bolaning psixologik holati baholanadi, psixologik buzilishlarning tuzilishi va og'irligi belgilanadi, psixologik yordamning yo'nalichlari, shakllari va mazmuni aniqlanadi. Diagnostik tekshiruvlar natijasiga ko'ra korreksion mashg`ulotlar turi va ularning davomiyligi, bolaning holatiga qarab belgilanadi. Psixologik qo'llab quvvatlashning zaruriy sharti bolaning psixologik holatini doimiy ravishda kuzatib borish, oraliq diagnostika tadbirlarini o'tkazish, uning natijalariga ko'ra keyingi ish rejasi tuziladi. Har bir bosqichda psixologik yordamning muhim tarkibiy qismi bemorning ota-onasi bilan uzlusiz hamkorlikdir. Ularga bola bilan muloqot qilish yo'llari ko'rsatiladi, mashg`ulotlarni tashkil etish va ularni davomiyligini belgilash qoidalari, maxsus o'quv qo'llanmalari va texnik vositalardan foydalanish o'rgatiladi. “Mehrli mактаб”da psixologik xizmat mutaxassislari davolanish vaqtida bajarilishi kerak bo'lgan ta'lim dasturini tanlash bo'yicha tavsiyalar beradi. Ular har bir bola uchun maqbul tarbiya va o'qish sharoitlarini aniqlashda ishtirok etadilar. Agar kerak bo'lsa, ular o'qituvchilarga mashg`ulot mazmunini moslashtirishda, materialni o'rganish vaqtin sur'atini tanlashda yordam beradi. Ular gospital ta'limda bolalarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqishadi.

O'z navbatida, o'quv jarayonini amalga oshiruvchi, o'quv faoliyati davomida bolani kuzatuvchi o'qituvchilar, gospital ta'limda faoliyat yuritayotgan

mutaxassis psixologlarga dasturni o‘zlashtirish tezligi, bolaning xohish istaklari va qiziqishlari, yuzaga keladigan qiyinchiliklar to‘g‘risida ma’lumot beradilar.

Ishning asosiy alohida yo‘nalishi- bu hissiy charchashning oldini olish va fanlararo o‘zaro ta`sir samaradorligini oshirish uchun pedagoglar jamoasiga psixologik yordam. “Mehrli maktab” psixologlari shuningdek, shifokorlar va boshqa tibbiyat xodimlari bilan ham uzlusiz hamkorlik olib boradilar. Bolani va uning oilasini kuzatib borish psixologik yordamning asosiy tamoyillariga, o‘zaro bog`liqlik, diagnostika va rehabilitatsiya tadbirlariga, terapevtik va pedagogik-psixologik jarayonlarning birligiga, individual va har bir bemor shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv, terapevtik ta’sirlarning bosqichma-bosqichligi, uzlusizligi, izchilligi va tizimliligi bilan ham chambarchas bog‘lidir. Psixologlar o‘z faoliyatida kasbiy axloq qoidalariga, xususan, psixologik ma’lumotlarning maxfiylici to‘g‘risidagi qoidaga amal qiladilar.

Ijobiy psixologik muhit yaratishda gospital ta’limda faoliyat yuritayotgan pedagoglar va psixologlar bolaning ota-onalari(qonuniy vakillari) bilan o‘zaro munosabatlarga kata e’tibor berishadi. Shuningdek, psixologlar tomonidan yosh xususiyatlari, yoshga bog‘liq inqiroz davrlari, motivatsiya va boshqalar bo‘yicha individual ma’ruzalar, treninglar va suhbatlar tashkil etiladi. Ota-onalar (qonuniy vakillar) vizual materiallar bilan tanishadilar, bu jarayon ishtirokchilarining psixologik madaniyatini oshirishga va o‘zaro munosabatlarning konstruktiv shakllarini birlashtirishga yordam beradi. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlardagi qiyinchiliklarni oldini olish uchun bolaning oilasini gospital ta’lim pedagoglari va psixologi tomonidan tashkil etilgan qo‘shma yoki ijodiy loyiha tadbirlariga, ta’lim va dam olish tadbirlarida ishtirok etishini ta’minlash zarur.

### Xulosa.

Tibbiyat muassasasida bolalar yangi ijtimoiy muhitga, masalan shifoxonadagi ijtimoiy hayotga moslashishda yordamga muhtoj. Bu jarayonda “Mehrli maktab” psixologlari bolalarni yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishiga yordam beradi. Bolalarning individual psixologik va ta’lim extiyojlariga qarab,

psixologik mashg'ulotlar, individual va guruhiy shaklda tashkil etiladi. Yashash joyidagi ta'limga muassasalari bilan ham uzviy aloqada bo'lish ham gospital ta'limga psixologlari uchun zarur hisoblanadi va bolaning yashash joyidagi asosiy maktablari bolani ijtimoiylashtirish uchun alohida sharoitlar yaratadi. Ko'p hollarda bolalar uydan uzoqda, ijtimoiy izolyatsiya, sinfdoshlar va yaqin doiralar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. Bunday vaziyatda ko'proq ma'suliyat muassasa psixologiga tushadi. Bolani psixologik qo'llab quvvatlash ishlarini to'g'ri va davomiy tashkil etish zarur.

Gospital ta'linda yana bir muhim jihat bu pedagog hodimlardir. Gospital ta'linda faoliyat yuritadigan har bir pedagog hodim asosiy kasbiy malakadan qat'iy nazar har qanday vaqtda oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyatlar va o'zgarishlar uchun mavjud tayyorgarlikni oldindan moslashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi uning kasbiy faoliyatida birinchi o'rinda turadi.

#### REFERENCES:

- 1 . Sh.M.Mirziyoyev 29.04.2019 yildagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sod Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022 yildagi "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'limga va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'limga berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 234-sonli qarori
3. Inklyuziv ta'limga. Gospital pedagogika. D.SH.Nafasov, I.X.Ruzimova, I.Q.Sayfullaeva, N.B.Djabbarova\Toshkent,.2024y.
4. Guzeev V.V. Mashg'ulotlarning tashkiliy shakllari va usullari. - M .: Xalq ta'limi, 2011 .-- 128 b.
5. <https://lex.uz/docs/5992724>